



Iste'mol kayfiyati sharhi

2025-yil IV chorak

- Daromad subindeksi
- Xarajat subindeksi
- Kredit subindeksi
- Jamg'arish subindeksi



Ushbu sharhda respondentlarning daromadlari va iste'mol xarajatlari tarkibi, pul-mablag'larini jamg'arishga bo'lgan moyilligi, kelgusidagi xarajatlari, shuningdek, kreditga bo'lgan ehtiyojlari tahlil qilingan.

Rezyume

So'rov natijalari¹ 2025-yilning IV choragida aholining iste'mol kayfiyatida ijobiy tendensiyalar saqlanib qolayotganini va umumiy barqarorlik darajasi ta'minlanayotganini ko'rsatmoqda.

IV chorakda respondentlarning daromadlari o'sishiga doir ijobiy kutilmalari yanada mustahkamlanib, aholining iqtisodiy faollik va moliyaviy barqarorlikka bo'lgan ishonchi saqlanib qolgan.

Xarajatlarga oid kutilmalarning barqaror darajada saqlanishi aholining iste'mol faolligi hamda tovar va xizmatlarga bo'lgan iste'mol talabining yetarlicha yuqori shakllanayotganini anglatadi.

Aholining jamg'arish faolligi ijobiy dinamikani saqlab qoldi. Jamg'armalar hajmida avvalgi chorakka nisbatan biroz pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, umumiy tendensiya barqarorligicha qolmoqda.

Shu bilan birga, kreditga bo'lgan talabning 2025-yilning III choragiga nisbatan biroz oshishi kuzatildi. Ushbu holat aholi xarajatlari barqarorlashganiga qaramasdan, moliyaviy resurslardan faolroq foydalanishga intilishi hamda iqtisodiy rivojlanish bo'yicha kutilmalarida yuqori darajadagi optimizm saqlanib qolishi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, 2025-yilning IV choragida aholining iste'mol kayfiyatida barqarorlik saqlanib, umumiy iqtisodiy kayfiyatda keskin o'zgarishlar kuzatilmadi.

¹ 2026-yil yanvar oyida aholining iste'mol kayfiyatini baholash maqsadida o'tkazilgan so'rovlarda 4 120 nafardan ziyod respondentlar ishtirok etdi.

Daromad subindeksi


Aholi daromadlari oshishi bo'yicha ijobiy tendensiyalarning barqarorligi kuzatilmoqda.

2025-yilning IV choragi yakunlariga ko'ra, daromadlar subindeksi ijobiy dinamikani namoyish etib, 72,5 bandni tashkil etdi. Ko'rsatkich o'tgan chorakka nisbatan 0,6 bandga, 2024-yilning mos davriga nisbatan esa 1,4 bandga o'sgan (1-2-rasmlar).


Makroiqtisodiy barqarorlik, almashuv kursi mustahkamlanishi va mehnat bozoridagi faollik, inflyatsiyaning barqarorlashuvi, shuningdek, aholi daromadlarining oshib borishi bo'yicha iqtisodiy kutilmalari subindeksning ijobiy dinamikasining yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

Qatnashuvchilarning kelgusi davr uchun daromadlar bo'yicha kutilmalari ijobiy shakllandi. Respondentlarning ko'pchiligi daromadlar oshishi (67 foizi, III chorakda ham 67 foiz) yoki barqaror qolishiga (25 foiz) ishonch bildirgan. Daromadlar kamayishini kutayotganlar ulushi (8 foiz) esa minimal darajagacha pasaygan (3-rasm).

1-rasm. Daromad subindeksi (band)




2-rasm. Daromad subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz band)




Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

3-rasm. Daromadlari o'zgarishi kutilmalari bo'yicha javoblar taqsimoti (ulushi, foizda)



4-rasm. Daromadlar kesimida javoblar taqsimoti (ulushi, foizda)




Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

2025-yilning IV choragida daromadlar oshishini kutayotgan respondentlar ulushi barcha daromadlilar guruhida barqaror yuqori (*jami respondentlarning 60-80 foizi*) shakllangan. Bunda, daromadlari oshishini kutayotganlar ulushi III chorakka nisbatan 7-10 mln so'm daromadlilar guruhida biroz oshgan.

Shu bilan birga, 20 mln so'mdan yuqori daromadga ega aholi qatlamida daromadlarning oshishi bo'yicha kutilmalar biroz pasaygan. Daromadlar darajasi o'zgarmay qolishini kutayotganlar ulushining ortishi asosan 3 mln so'mgacha, 10-15 mln so'm hamda 20 mln so'mdan yuqori daromad oluvchi guruhlarda kuzatilgan.

5-rasm. Respondentlarning daromad manbalari (ulushi, foizda)



6-rasm. Faoliyat sohalari kesimida daromadlari o'zgarishi bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)

Sohalar	ko'payadi	o'zgarishsiz qoladi	kamayadi
maishiy xizmat	79	18	3
AT va OAV	77	18	5
qishloq xo'jaligi	76	15	9
savdo	75	20	5
davlat boshqaruvi	73	23	5
kafe-restoran	72	24	5
turizm	68	27	5
ishlab chiqarish	68	22	11
tashish xizmati	67	22	11
boshqa	67	23	10
tibbiyot	65	26	9
bank va moliya	65	27	8
qurilish	64	23	13
kommunal xizmat	63	29	9
fan-ta'lim	62	30	8

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Umumiy ijobiy trend kelgusi davrda ichki talab va iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlovchi asosiy drayver bo'lishi kutilmoqda.

Respondentlarning aksariyati ya'ni 67 foizi (*o'tgan chorakda 62 foiz*) daromad manbalari sifatida rasmiy oylikni ta'kidlashgan. Shu bilan birga, tomorqa, kasb-hunar (*kunlik daromadli ishlar*) va pul o'tkazmalari orqali daromad olishini ta'kidlaganlar ulushi o'tgan chorakka nisbatan biroz kamaygan bo'lsa, daromad manbalari bo'yicha qolgan barcha guruhlar o'zgarishsiz qoldi (*5-rasm*).

Sohalar kesimida asosan, maishiy xizmat, axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalari, qishloq xo'jaligi, davlat boshqaruvi va umumiy ovqatlanish hamda savdo sohasi vakillarida daromadlari oshishi bo'yicha optimistik kutilmalar qayd etilgan (*6-rasm*).

Bu holat xizmatlar va turizm sohalari rivojlanishi bilan izohlanib, kelgusi oylarda mazkur yo'nalishlarda yuqori iste'mol faolligi saqlanib qolishi mumkinligiga ishora beradi.


Shu bilan birga, daromadlar oshishi bo'yicha fan-ta'lim, kommunal xizmatlar va qurilish sohalarida respondentlar ulushi kamroqni tashkil etmoqda.

Xarajat subindeksi


Xarajatlar subindeksi o'tgan chorak darajasida saqlanib, barqaror yuqori shakllanmoqda.

2025-yil IV choragida xarajat subindeksi oldingi chorakka nisbatan o'zgarishsiz qolib, 77,8 bandni tashkil etdi. Shu bilan birga, subindeks 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,4 bandga yuqoriladi (*7-8-rasmlar*).

7-rasm. Xarajat subindeksi (band)



8-rasm. Xarajat subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz band)




Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, kelgusi davr uchun xarajatlarning oshishini bildirganlar ulushi 76 foizni (*III chorakda 78 foiz*) tashkil etdi. Shuningdek, xarajatlarning kamayishini bildirganlar ulushi o'tgan chorakka nisbatan biroz oshgan (*9-rasm*).


Eng yuqori va eng quyi daromad oluvchi qatlamlar kelgusi oylarda xarajatlari kamayishini ta'kidlashgan bo'lsa, o'rta (*5-7 mln so'mgacha va 7-10 mln so'mgacha*) va nisbatan yuqori (*10-15 mln so'mgacha va 15-20 mln so'mgacha*) daromad oluvchilar kelgusida xarajatlarning oshishini kutishmoqda (*10-rasm*).

Deyarli barcha daromad guruhlarida uy-joy ta'miri va ta'lim uchun xarajatlar ustuvor yo'nalish sifatida qayd etildi. Bunda nisbatan kamroq daromadlilar (*5 mln so'mgacha*) asosiy e'tiborni uy ta'miri va ta'limga qaratishgan bo'lsa, yuqori daromadlilarning (*20 mln so'mdan yuqori*) xarajatlari ma'lum darajada diversifikatsiyalangan bo'lib, bunda, ular ko'proq yirik xaridlarni, xususan, avtomobil va uy sotib olish hamda dam olishni (*sayohat*) rejalashtirishgan. Shuningdek, 15 mln so'mdan yuqori daromadlilarning 13 foizi mebel xaridlarini qayd etishgan (*11-rasm*).

9-rasm. Kelgusi xarajatlarning o'zgarishi bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)



10-rasm. Daromadlar kesimida xarajatlarning o'zgarishi bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

11-rasm. Xarajatlar bo'yicha kutilmalar, aholi daromadlari kesimida (ulushi, foizda)

Kelgusi xarajatlar	uy-joy ta'miri	ta'lim	avtomobil	boshqalar	davolanish	xarid qilmaymiz	sayohat	uy-joy xaridi	to'y	mebellar xaridi	maishiy texnika	oilaviy bayram	elektron qurilma
2 mln.so'mgacha	23	21	7	13	12	15	4	5	8	5	3	3	2
2-3 mln.so'm	27	23	5	10	13	13	5	6	6	8	6	7	3
3-5 mln.so'm	26	22	9	11	13	13	7	8	8	5	6	6	3
5-7 mln.so'm	23	19	12	14	12	14	6	6	10	4	5	5	1
7-10 mln.so'm	25	22	18	15	11	10	9	8	8	6	7	6	3
10-15 mln.so'm	30	22	15	18	13	10	12	12	8	7	9	6	4
15-20 mln.so'm	32	20	19	19	11	8	14	14	12	13	8	6	6
20-30 mln.so'm	19	17	24	13	13	9	19	14	10	12	9	10	5
30 mln.so'mdan yuqori	23	18	27	20	17	8	20	20	12	10	12	10	5

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

So'rovlarga ko'ra, ta'lim barcha guruh vakillarining eng asosiy xarajat yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Bunda daromadi pastroq bo'lgan qatlam ham ta'limga ko'proq xarajat qilishlarini ma'lum qilgan.


Respondentlar orasida yoshlar (30 yoshgacha) asosan ta'lim va uy-joy ta'miri bilan bog'liq xarajatlarga ustuvorlik berishini bildirgan bo'lsa, o'rta yoshlilar (31-50 yosh) uy-joy ta'miri, farzandlar ta'limi, davolanish hamda oilaviy bayramlarni, yoshi kattalar esa (51 yoshdan yuqori) sog'lig'ini tiklash va to'y marosimlari uchun ko'proq mablag' sarflashni rejalashtirmoqda (12-rasm).

12-rasm. Yosh kesimida xarajatlar tarkibi (ulushi, foizda)

Yosh chegarasi	ta'lim	uy-joy ta'miri	davolanish	boshqalar	oilaviy bayram	xarid qilmadik	maishiy texnika	avtomobil	to'y	sayohat	mebellar xaridi	uy-joy xaridi	elektron qurilma
18 yoshdan kichik	36	12	7	14	9	7	7	8	7	8	3	4	3
18-30 yoshgacha	30	22	17	15	14	11	9	9	9	4	4	5	5
31-40 yoshgacha	21	24	19	16	14	14	8	7	4	4	5	5	4
41-50 yoshgacha	27	29	21	14	13	12	7	6	8	2	4	3	2
51-60 yoshgacha	16	26	24	11	14	11	9	9	13	8	4	4	2
60 yoshdan katta	11	21	34	15	8	11	10	8	4	8	4	4	1

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

13-rasm. Yirik xaridlar/xarajatlar o'zgarishi (ulushi, foizda)



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.


Kelgusi oylarda respondentlar tomonidan asosan, uy-joy ta'miri, ta'lim, davolanish, avtomobil xaridi va oilaviy tadbirlarni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarga yuqori talab shakllanishi kutilmoqda (13-rasm).

Kredit subindeksi


Kredit subindeksida biroz o'sish kuzatilgan.

2025-yil IV chorakda kredit subindeksi III chorakka nisbatan 1,1 bandga oshib, 64,2 bandni tashkil etdi (14-15-rasmlar).

14-rasm. Kredit subindeksi (band)




15-rasm. Kredit subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz band)




Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

16-rasm. Kelgusidagi kreditga bo'lgan talab o'zgarishi bo'yicha kutilmalar taqsimoti (ulushi, foizda)



17-rasm. Daromadlar darajasi kesimida kreditga bo'lgan talab (ulushi, foizda)



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Kelgusi 12 oyda kredit olishga ehtiyoji borlar ulushi biroz oshib, 54 foizni tashkil etdi. Kreditga bo'lgan eng yuqori talab 7-10 mln so'm daromadlilar guruhida kutilmoqda. Aksincha, daromadi 20 mln so'mdan yuqori bo'lgan respondentlar orasida kredit olish talabida biroz pasayish tendensiyasi namoyon bo'lmoqda (17-rasm).

Respondentlarning kredit mablag'larining asosiy qismini uy-joy ta'miri, ta'lim va avtomobil xaridi kabi maqsadlarga yo'naltirishini ta'kidlashgan (18-rasm).

18-rasm. Kelgusida kreditga va xaridlarga bo'lgan talabning shakllanishi (ulushi, foizda)

	uy-joy ta'miri	ta'lim	boshqalar	avtomobil	davolanish	xarid qilmaymiz	to'y	sayohat	uy-joy xaridi	maishiy texnika	mebellar xaridi	oilaviy bayram	elektron qurilma
oshadi	25	20	13	19	10	9	11	8	9	6	6	5	3
biroz oshadi	27	21	15	13	12	8	10	7	9	6	5	7	3
o'zgarishsiz qoladi	25	23	14	10	13	13	8	7	7	6	6	6	3
biroz kamayadi	24	11	9	14	10	9	11	14	9	5	6	9	5
kamayadi	25	23	14	11	12	10	8	8	9	10	9	6	3
kreditga ehtiyoj yo'q	25	22	14	9	13	18	6	8	6	6	7	5	2

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Jamg'arish subindeksi

So'nggi choraklarda aholining jamg'arishga bo'lgan moyilligi barqaror saqlanib qolmoqda.

2025-yil IV chorak yakunlariga ko'ra, jamg'arish subindeksi 68,8 bandni tashkil etdi. Bunda choraklik dinamikada 0,1 bandlik biroz pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 bandlik o'sish qayd etildi. Umuman olganda, so'nggi yillarda aholining jamg'arma shakllantirishga bo'lgan moyilligi umumiy hisobda ijobiy tendensiyani namoyon etmoqda (19-20-rasmlar).

So'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 62,6 foizi (avvalgi chorakka nisbatan 1 foiz bandga kamroq) kelgusida jamg'armalari oshishini kutmoqdalar (21-rasm).


Shu bilan birga, jamg'armalar hajmi o'zgarishsiz qolishini ta'kidlaganlar ulushi 24,2 foizni tashkil etib, III chorakka nisbatan 1,5 foiz bandga oshgan.

Jamg'armalarning kamayishini kutayotgan respondentlar ulushi esa pasayish tendensiyasini namoyon etib, 13,2 foizni (avvalgi III chorakda 13,7 foiz) tashkil etdi.


Ushbu dinamika aholi o'rtasida moliyaviy barqarorlikka bo'lgan ishonch saqlanib qolayotganidan darak beradi.

2025-yilning IV choragida aholining jamg'armalari yetarliligi bo'yicha kutilmalarida turlicha dinamika kuzatildi. Xususan, 1 oygacha bo'lgan qisqa muddatli jamg'armaga ega aholi vakillari 34,1 foizgacha ko'paygan bo'lsa, ikkinchi tomondan, "jamg'armasi yo'q" respondentlar ulushi ham yil yakunida biroz oshib ko'pchilikni (40,4 foiz) tashkil etmoqda (22-rasm).

19-rasm. Jamg'arish subindeksi (band)




20-rasm. Jamg'arish subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz band)




Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

21-rasm. Respondentlarning jamg'armalari o'zgarishi bo'yicha kutilmalari (ulushi, foizda)



22-rasm. Jamg'armaning yetarlilik darajasi bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)




Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.


Shuningdek, 3-6 oygacha yetarli jamg'armaga ega bo'lgan respondentlar ulushi biroz ko'paygan bo'lsa, 1-3 oygacha hamda 6 oydan ortiq muddatga yetarli jamg'armaga ega respondentlar ulushi o'tgan chorakka nisbatan biroz kamaygan.

IV chorakda qatnashuvchilarning qariyb 55,6 foizi moliyaviy ahvoli yaxshilanganini ta'kidlagan bo'lsa, 33 foizdan ortig'i moliyaviy holatini o'zgarmagan deb baholagan. Moliyaviy ahvoli yomonlashganlar ulushi III chorakka nisbatan biroz oshib, 11,2 foizni tashkil etgan. Biroq ushbu ko'rsatkich yil davomida qisqarib borgan (23-rasm).

23-rasm. Respondentlarning moliyaviy holati o'zgarishi (ulushi, foizda)



24-rasm. Aholi muddatli depozitlari qoldig'i o'sishi (trln. so'm, yillik foizda)



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Milliy valyutadagi muddatli depozitlar hajmining bir yilda 37,1 foizga o'sgani bank sohasining jozibadorligini ifodalamoqda. Bu nafaqat jamg'armalar miqdori oshayotganini, balki aholining mablag'larini bankda saqlash bo'yicha xavotirlari kamayib borayotganini ko'rsatadi (24-rasm).

Iqtisodiyot bo'yicha kutilmalar


Respondentlarning kelgusi 12 oylik iqtisodiy rivojlanish bo'yicha ijobiy kutilmalari saqlanib qolgan. So'rov ishtirokchilarining qariyb 68,5 foizi mamlakat iqtisodiy holati yanada yaxshilanishiga ishonch bildirgan.

Shuningdek, 24,7 foiz qatnashuvchilar iqtisodiy barqarorlik saqlanib qolishini ta'kidlagan bo'lsa, salbiy kutilmalar eng minimal darajada (6,7 foiz) shakllangan.


Respondentlarning o'rta muddatli (*kelgusi 3 yil*) iqtisodiy kutilmalari qisqa muddatli prognozlarga nisbatan yanada yuqori optimizm bilan xarakterlandi. So'rov ishtirokchilarining 78,7 foizi mamlakat iqtisodiyoti yanada yaxshilanishiga ishonch bildirgan bo'lib, bu aholining uzoq muddatli jamg'arish va investitsiya qilish qarorlariga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi fundamental omil hisoblanadi.

So'rov ishtirokchilarining 16,8 foizi joriy iqtisodiy holat davom etishini hamda 4,5 foizi iqtisodiyotning sekinlashishi bo'yicha xavotirlarini bildirishgan.

25-rasm. Kelgusi 12 oy uchun mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)



26-rasm. Kelgusi 3 yilda mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Iste'mol kayfiyati indeksi

Markaziy bank tomonidan aholining keng soha vakillarini qamrab olgan holda o'tkaziladigan so'rovlar natijalari asosida berib boriladigan iste'mol kayfiyati indeksi² (IKI) ni hisoblashda so'rov ishtirokchilarining kelgusidagi daromadlari, xarajatlari, kreditlari va jamg'armalari o'zgarishi bo'yicha tanlangan javob variantlari sonidan kelib chiqib shakllantiriladi.

Bunda respondentlar tomonidan belgilangan javoblar variantlari quyidagi vaznlar orqali umumlashtiriladi va normallashtiriladi:

sezilarli darajada ko'payish/oshish (ijobiy) – 100;

biroz ko'payish/oshish (ijobiy) – 75;

neytral javob (o'zgarishsiz) – 50;

biroz kamayish (biroz salbiy) – 25;

sezilarli darajada kamayish (salbiy) – 0.

Agar hisoblangan subindeks ko'rsatkichi 50 bandga teng bo'lsa, so'rov ishtirokchilari o'rganilayotgan kutilmalari o'zgarmaganini ko'rsatadi. Agar 50 banddan yuqori bo'lsa, kutilmalar oshayotganini bildiradi. Agar subindeks ko'rsatkichi 50 banddan past bo'lsa, kutilmalar pasayganini bildiradi.

Shuningdek, subindeks 100 bandga teng bo'lishi barcha respondentlar yuqori oshishini kutayotganini anglatadi, 0 bandga teng bo'lishi barcha sezilarli kamayishni bildirganini anglatadi.

² Indeks ko'rsatkichi 0 dan +100 oralig'ida bo'lib, ko'rsatkich +100 ga yaqinlashgani sari iste'mol kayfiyatidagi ijobiylikni ifodalaydi.

© O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026 yil

Pul-kredit siyosati departamenti tomonidan tayyorlandi.

O‘z taklif va e‘tirozlaringizni quyidagi manzilga jo‘natishingiz mumkin:

E-mail: sinogamov@cbu.uz

Tel.: (+998) 71 212-60-22